

IQTISODIY PROTSESSDA SUD XARAJATLARI INSTITUTINING TUSHUNCHASI

*Babajanov Farrux Qadamboyevich, O'zbekiston Respublikasi
Sudalar oliy kengashi huzuridagi Sudalar oliy maktabi mustaqil
izlanuvchisi*

ПОНЯТИЕ ИНСТИТУТА СУДЕБНЫХ РАСХОДОВ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

*Бабажанов Фаррух Кадамбоевич, самостоятельный
соискатель Высшей школы судей при Высшем Судейском
совете Республики Узбекистан*

THE CONCEPT OF THE INSTITUTE OF COURT COSTS IN THE ECONOMIC PROCESS

*Babajanov Farrukh Kadamboyevich, independent researcher at
the Higher School of Judges under the Supreme Council of
Judges of the Republic of Uzbekistan*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sud xarajatlari institutining odil sudlovni amalga oshirishdagi ahamiyati xususida, davlat va iqtisodiy sud ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar tahsil qilingan, hamda shu bilan birga sud xarajatlari ta'rifi va tushunchasi tahsil qilinadi.

Kalit so'zlar: odil sudlov, davlat, sud, sud xarajatlari, institut, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar, taraflar, budget, kompensatsiya, ta'rif, profilaktika, protsessual.

Abstract: This article analyzes the importance of the institution of court costs in the administration of justice, the relationship between the state and persons participating in economic disputes, and also analyzes the definition and concept of court costs.

Key words: state, justice, court, court costs, institution, persons participating in the case, costs associated with the consideration of the case, parties, budget, determination, compensation, prevention, procedural.

Аннотация: В данной статье анализируются значение института судебных расходов в осуществлении правосудия, взаимоотношения государства и лиц, участвующих в экономических спорах, а также анализируются определение и понятие судебных расходов.

Ключевые слова: правосудие, государство, суд, судебные расходы, учреждение, лица, участвующие в деле, издержки, связанные с рассмотрением дела, стороны, бюджет, возмещение, определение, профилактика, процессуальный.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Sudlarning faoliyatini moliyalashtirish faqat O'zbekiston Respublikasi budjetidan amalga oshiriladi hamda u odil sudlovni to'liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashi kerak[1].

Sud xarajatlari instituti sud huquq tizimining faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjalaring asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bu protsessual huquqning umumiy qismining protsessual huquqiy instituti bo'lib, sud protsessining barcha turlariga va barcha bosqichlariga taalluqlidir, protsessual munosabatlarning har bir subyekti u yoki bu darajada



[https://orcid.org/0009-0004-
6265-3864](https://orcid.org/0009-0004-6265-3864)

e-mail: [farruh-
babajanov@mail.ru](mailto:farruh-babajanov@mail.ru)

sud xarajatlari to‘g‘risidagi qoidalarni amalga oshiradi[2].

Iqtisodiy protsessda sud xarajatlarining o‘rnini aniqlashtirishdan avval, sud xarajatlarining ta‘rifiga murojaat qilish kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Bugungi kunda milliy qonunchilikimizda sud xarajatlarining qonuniy ta‘rifi mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi[3] va O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunida ham sud xarajatlari ta‘rifi berilmagan bo‘lib, bu faqat davlat boji va ishni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq sud chiqimlaridan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2020-yil 19-dekabrdagi 36сонли “Iqtisodiy ishlar bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida[4] sud xarajatlarini, iqtisodiy ishlar bo‘yicha sud xarajatlar davlat boji va ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlardan iborat ekanligi belgilangan.

Berilgan ta‘rif qisqacha bo‘lib, bu, albatta, sud xarajatlari institutining mohiyatini to‘liq ochib bermaydi.

Protsessual huquqning zamonaviy doktrinasida sud xarajatlarining bir qator ta‘riflari mavjud bo‘lib, sud xarajatlari sud tomonidan ko‘rib chiqish jarayonida sud ishtirokchilari tomonidan to‘lanadigan va odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni to‘liq yoki qisman qoplashni maqsad qilgan pul summalarini sifatida belgilanadi.

Asosan, ular quyidagi xususiyatlar va elementlarga ega:

1. Ushbu xarajatlар qoplanadigan subyektlarning tarkibi;

2. Sud xarajatlari ishni sudda ko‘rib chiqish bilan bog‘liq xarajatlar ekanligini tasdiqlash;

3. Sud xarajatlari tarkibi qonun hujjatlarida nazarda tutilganligini tasdiqlash.

Sud xarajatlari ta‘rifiga kelsak, nizolar asosan ularning manbasini aniqlash atrofida bo‘lib, ulardan faqat ikkitasi davlat va ishda ishtirok etuvchi shaxslardir.

Protsessual ilmiy adabiyotlarda sud xarajatlarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fuqarolik ishlarini sudda ko‘rib chiqish va hal qilish bilan bog‘liq xarajatlarni belgilovchi fuqarolik

protsessual huquqi sifatida ko‘rib chiqish taklif etiladi[5].

A.G.Stolyarovning fikriga ko‘ra, sud xarajatlari “protsessual harakatlar bilan bog‘liq xarajatlar” nomi ostida birlashtirishi mumkin, unga ko‘ra A.G.Stolyarov “sudning, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va protsessual sudlovni amalga oshirishga hissa qo‘shadigan jarayon ishtirokchilarining protsessual qonunchilik hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq moddiy xarajatlari, sud jarayonini belgilash, kiritish va taraflar o‘rtasida taqsimlash tartibini protsessual qonunchilik hujjatlar bilan belgilanadi”[6] deb tushuntiradi.

Ushbu keltirilgan ta‘rifning yetarlicha to‘liqligiga qaramay, “sud xarajatlari” atamasidan voz kechish va uni “protsessual harakatlar bilan bog‘liq xarajatlar” bilan almashtirish kerak emas, chunki bu terminologiyada chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Sh.Sh.Shoraxmetovning fikricha, xo‘jalik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishda davlat tomonidan sarflanadigan mablag‘larning muayyan qismi ishda manfaatdor bo‘lgan shaxslar tomonidan to‘lanadi. Qonun bu shaxslarga (fuqarolar va tashkilotlarga) sudlarda xo‘jalik ishlarini yuritish yuzasidan qilinadigan sud xarajatlarini – davlat boji va ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlarni qoplashni yuklaydi[7].

Z.N.Esanovaning sud xarajatlariga bergen ta‘rifga ko‘ra, “Sudlov faoliyatini tashkil etish, davlat budgetini shakllantirish, sud ishlarini yuritishni og‘ishmay amalga oshirish, sud hujjatları aylanmasini tashkil etish, shuningdek, sudga murojaat qiluvchilarning protsessual majburiyatlarini bajarilishini ta‘minlash, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual mas’uliyatini yanada oshirish, odil sudlovni amalga oshiruvchi shaxslarni amalga oshirilgan protsessual harakatlari uchun moddiy rag‘batlantirish va boshqa sudga oid harakatlar uchun tushum bo‘ladigan, undiriladigan, to‘lanadigan, taqsimlanadigan va sarflanadigan mablag‘larga sud xarajatlar deyiladi”[8].

Sud xarajatlari ishni sudda ko‘rish bilan bog‘liq taraflarning, mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning va alohida ish yuritish tartibida murojaat qiladigan arizachilarning zimmasiga yuklanadigan pul mablag‘laridir[9].

Sud xarajatlarini qarama-qarshi taraf tomonidan ishda yutgan taraf foydasiga qaytarish ish yuritish uchun qilingan xarajatlar uchun adolatlilik mukofot hisoblanadi va shu bilan birga, hech bo‘lmaganda aksariyat hollarda asossiz va noto‘g’ri arizalarning ko‘payishining oldini olish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarni, ya’ni, sud xarajatlari institutining asosini eng avvalo ishda ishtirot etuvchi taraflar va shaxslar zimmasiga yuklanadigan xarajatlar tashkil etadi, degan umumiy xulosa birlashtiradi.

MUHOKAMA. Sud xarajatlari deganda, ish bo‘yicha nafaqat davlat boji va boshqa sud xarajatlari, balki davlat budgeti, xususan, sudyalarning ish haqi va sud binolarini saqlash xarajatlari ham tushuniladi. Ammo, sud xarajatlariga bunday yondashuv umuman qabul qilinmagan yoki keng tarqalgan emas.

Shunday qilib, ushbu masalani o‘rganish jarayonida ko‘rsatilgan nuqtayi nazarni M.X.Vafin, avvalgi ta’riflarda keltirilgan pozitsiyaga qisman rozi bo‘lsa-da, ayni paytda uning to‘liq emasligini ta’kidladi. M.X.Vafinning ta’kidlashicha, bunday nuqtayi nazar sud xarajatlari institutining uning asosiy xususiyatini o‘z ichiga olmaydi – sud xarajatlari asosan davlat xarajatlari bo‘lib, ular qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda taraflarga, uchinchi shaxslarga va alohida ish yuritishda ariza beruvchilarga yuklanadi va ularning faqat kichik bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham sud xarajatlari tushunchasi ushbu xususiyatni o‘zida aks ettirishi kerak. Shuni inobatga olgan holda, M.X.Vafin fuqarolik ishlari bo‘yicha sud xarajatlarini taraflarga, uchinchi shaxslarga va alohida ish yuritish jarayonida ariza beruvchilarga odil sudlovni amalga oshirish uchun davlat xarajatlarining bir qismi sifatida ularga zararni qoplash, ularni o‘z majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishga rag‘batlantirish va sud organlariga asossiz murojaatlarning oldini olish maqsadida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda belgilashni taklif qildi[10].

Sud xarajatlarining joriy etilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad davlatning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash emas, aksincha, sularda asossiz nizolar qo‘zg‘atilishining oldini olish hisoblanadi. Undan tashqari, sud xarajatlari moddiy-huquqiy munosabat ishtirotchilarini intizomli bo‘lishga undaydi va o‘z zimmasidagi

majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish yuzasidan ogohlantirish kabi xususiyatlarga ega.

Sh.Sh.Shoraxmetovning ta’kidlashicha, ishda manfaatdor bo‘lgan shaxslar tomonidan sud xarajatlari to‘latilishining ahamiyati davlat uchun mablag‘ olishda emas, balki taraflarning o‘zlarining fuqarolik huquqiy burchlarini ixtiyoriy ravishda bajarishga rag‘batlantirish va asossiz nizolarning qo‘zg‘atilishiga yo‘l qo‘ymaslikdir[11].

Darhaqiqat, odil sudlov o‘z faoliyati uchun muhim moddiy yordamni talab qiladi, uni ikki manbadan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ishda ishtirot etuvchi shaxslar tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali olish mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, davlatning mutlaq yurisdiksiyasi ostida odil sudlovni amalga oshirish faoliyatining o‘zi, birinchi navbatda, davlat budgeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Odil sudlovni amalga oshirish davlat tomonidan moliyalashtirishni talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun ham odil sudlovni amalga oshirishda davlat tomonidan sarflanadigan mablag‘larning muayyan qismi ishda manfaatdor bo‘lgan shaxslar tomonidan to‘lanadi[11].

Iqtisodiy sularda ishlarni ko‘rish muayyan xarajatlarni talab qiladi. Sud xarajatlari bu iqtisodiy ishni sudda ko‘rib chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlardir. Haqiqatan ham, iqtisodiy ishlarni qo‘zg‘atishda shaxslar tomonidan davlatga ma’lum bir to‘lovni to‘laydilar. Shu bilan birga, yig‘imdan tushgan mablag‘lar bevosita sud ishlarini yuritish xarajatlarini qoplash uchun emas, balki tegishli budgetga tushadi, bu mablag‘lar davlatning boshqa ehtiyojlariga taqsimlanadi. Albatta, bu budget mablag‘larini hech qanday tarzda sud xarajatlari manbalariga bog‘lash mumkin emas degani emas. Xususan, tomonlarning sud xarajatlari og‘rligidan xalos bo‘lishi va ularni davlat o‘z zimmasiga olishi buning aksini ko‘rsatadi.

M.A.Yeroxova ikki xil institut – davlat boji va sud xarajatlarini bir tushuncha ostida birlashtirishni sun’iy qurilish deb hisoblaydi, chunki tegishli xarajatlarning ma’nosi va huquqiy tabiatini har xil. Shunday qilib uning fikriga ko‘ra, davlat boji budgetga to‘lanadi va uning ma’nosi nizolarni sudgacha hal qilishni rag‘batlantirishda, nizoli ishlarni bo‘yicha asossiz da‘volarning ma’lum bir oldini olishda ko‘rish mumkin. Sud xarajatlari institutining maqsadi sud protsessida ishtirot etishga majbur

bo‘lgan shaxsga nizoni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplashdir. Shunday qilib, davlat boji fiskal xususiyatga ega, sud xarajatlari esa kompensatsiya xarakteriga ega. Biroq, M.A.Yeroxova bu institutlarni bir konsepsiya ostida birlashtirishni asosli deb hisoblaydi, chunki bu da’vogar tomonidan to‘langan davlat bojini yutqazgan tomondan qoplash imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan[12].

NATIJALAR. Ayrim manbalarda sud xarajatlari ikkita asosiy funksiyani bajarishga mo‘ljallangan: kompensatsiya va profilaktika.

Kompensatsiya funksiyasining mohiyati iqtisodiy ish bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish uchun davlat xarajatlarini qisman qoplashdir. Ushbu turdag‘i xarajatlarni qisman qoplash, bиринчи navbatda, davlat bojini to‘lash va iqtisodiy ishni ko‘rib chiqishda sud tayinlagan ekspertizani o‘tkazish, guvohni chaqirish, dalillarni joyida ko‘zdan kechirish, sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni yutqazgan tomondan undirish orqali amalga oshiriladi.

O‘z navbatida, sud xarajatlarining profilaktik funksiyasi asossiz arizalarining sonini kamaytirishga, sud protsessini kechiktirishga, shuningdek, ishda ishtirok etayotgan shaxslarning boshqa suiste’molliklariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, sud xarajatlari institutining so‘nggi tadqiqotlari sud xarajatlari ta’rifini har tomonlama tushunishni ko‘rsatadi, bu davlatning, ishda ishtirok etuvchi va odil sudlovni amalga oshirishga yordam beradigan shaxslarning rollarini bir xilda aks ettiradi[13].

XULOSA. Shu munosabat bilan, sud xarajatlari institutining ta’rifi uning taqdim etilgan ikkita tushunchasi o‘rtasida ekanligini aytish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi va quyidagicha ko‘rinishi mumkin: iqtisodiy protsessda sud xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga yuklangan, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga iqtisodiy ishni sudda ko‘rib chiqish va hal qilish bilan bog‘liq xarajatlarni anglatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn]. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023 y. – 112 b.
2. Решетникова И.И.; Курганникова И.И. Судебные расходы в арбитражном процессе: коммент. и постатейн. материалы к гл. 9 Арбитр.
3. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекси. (2024 йил 23 февралгача бўлган ўзгартириш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, “Адолат” миллый хукукий ахборот маркази. – Т.: 2024 й. – 496 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленуми қарорлари / (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг иқтисодий ва маъмурий ишлар бўйича тушунтиришлари) – Т.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2024 й. – 568 б.
5. Гражданский процесс: Учебник. Под ред. М.К. Треушникова. - 5-е изд., перераб. и доп. - М.: Статут, 2018. С.229; Гражданское процессуальное право: учебник для вузов / Под ред. М.С.Шакарян. М., 2004. С.151.
6. Столяров А.Г. Судебные расходы как элемент гражданской процессуальной ответственности: Диссертация. канд. юридич. наук. Санкт-Петербург. 2004.С.11.
7. Шораҳметов Ш. Ўзбекистон Республикасининг хўжалик процессуал хукуки: Олий ўқув юргарининг хукуқшунослик мутахассислиги бўйича таълим олаётган талабалари учун дарслик / Масъул муҳаррир: М.Э.Абдусаломов.-Т.: “Адабиёт жамғармаси” нашр., 2001.-76 б.
8. Fuqarolik protsessual huquqi Darslik. Z.N.Esanova – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y. – 328 bet.
9. Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши, Фуқаролик ишлари бўйича давлат божини белгилаш ва ундириш тартиби. Амалий кўлланма.-Тошкент. 2023. – 5-б.
10. Вафин М.Х. Судебные расходы по гражданским делам: Дисс.канд.юрид.наук. М.1984. С.23.
11. Шораҳметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал хукуки. Дарслик.- Тошкент: Адолат. 2001. – 106 б.
12. Арбитражный процессуальный кодекс Российской Федерации с постатейными материалами судебной практики и комментариями / под ред. Т.К.Андреевой. М.: Статут. 2013. С. 119.
13. Марков А.И. Характеристика института судебных расходов // Юридический аналитический журнал. 2004. №4 (12). С. 75-78.